

NOTO‘LIQ OILALARDA FARZANDLARNING PSIXOLOGIK RIVOJLANISHIDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-575-579>

Baratova Dilafruz Olimjonovna

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Pedagogika
va o‘qitish metodikasi” kafedrası katta o‘qituvchisi.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada noto‘liq oilalarda o‘suvi farzandlarning psixologik rivojlanishida yuzaga keladigan muammolar, ularning oqibatları va bu muammolarni hal qilish bo‘yicha amaliy yechimlar o‘rganilgan. Tadqiqotning maqsadi noto‘liq oilalardagi bolalarning emosional tuzilishi, o‘z-o‘ziga bo‘lgan e‘tiborining darajasi, o‘rta-melakali faoliyat, ijodiy qobiliyatlari va ijtimoiy munosabatlarini aniqlashtirish. Tadqiqot 2024-2025 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasining 10 ta shahar va viloyatida olib borilgan. Natijalariga ko‘ra, noto‘liq oilalarda o‘suvi bolalarda psixologik muammolar 68% oralikda uchrashilsa, samarali psixologik yordamlar va ijtimoiy suportni ko‘lga olganlarida bu ko‘rsatkich 35% ga tushadi. Maqolada farzandlarning psixologik salomatligini saqlash uchun amaliy tavsiyalar va intervensiya usullari berilgan.

Kalit so‘zlar: Noto‘liq oila, Farzandlarning psixologik rivojlanishi, Emosional muammolar, Psixologik yordamlar, Ijtimoiy suport, Oila terapiyasi

ПРОБЛЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ В НЕПОЛНЫХ СЕМЬЯХ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматриваются проблемы, возникающие в психологическом развитии детей, воспитывающихся в неполных семьях, их последствия, а также практические пути решения данных проблем. Целью исследования является анализ эмоциональной структуры детей из неполных семей, уровня их самооценки, познавательной активности, творческих способностей и социальных взаимоотношений. Исследование проводилось в 2024–2025 годах в 10 городах и регионах Республики Узбекистан. Согласно полученным результатам, психологические проблемы у детей, воспитывающихся в неполных семьях, встречаются в пределах 68%, однако при получении эффективной психологической помощи и социальной поддержки данный показатель снижается до 35%. В статье представлены практические рекомендации и интервенционные методы, направленные на сохранение психологического здоровья детей.

Ключевые слова: Неполная семья, психологическое развитие детей, эмоциональные проблемы, психологическая помощь, социальная поддержка, семейная терапия.

PROBLEMS OF PSYCHOLOGICAL DEVELOPMENT OF CHILDREN IN SINGLE-PARENT FAMILIES AND THEIR SOLUTIONS

Abstract. This article examines the problems that arise in the psychological development of children growing up in single-parent families, their consequences, and practical solutions to address these issues. The purpose of the study is to analyze the emotional structure of children from single-parent families, their level of self-esteem, cognitive activity, creative abilities, and social relationships. The research was conducted during 2024–2025 in 10 cities and regions of the Republic of Uzbekistan. The results indicate that psychological problems occur in approximately 68% of children raised in single-parent families; however, with effective psychological assistance and social support, this figure decreases to 35%. The article provides

practical recommendations and intervention methods aimed at maintaining and improving children's psychological well-being.

Keywords: *Single-parent family, psychological development of children, emotional problems, psychological assistance, social support, family therapy.*

Ta'lim olish — har bir bola uchun muhim huquq bo'lib, uning kelajagini shakllantiradi. Biroq, noto'liq oilalarda, ya'ni ota-ona o'rtasida nizo yoki ajralish mavjud bo'lganda, farzandlarning ta'lim olishida bir qator qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bu qiyinchiliklar farzandning ruhiy, psixologik va moddiy holatiga ta'sir qiladi. Noto'liq oilalarda farzandlarning ta'lim olishidagi asosiy qiyinchiliklar va ularni yengish yo'llari ko'rib o'tamiz. Noto'liq oilalarda farzandlarning ta'lim olishiga iqtisodiy cheklovlar katta ta'sir ko'rsatadi. Ajralgan ota-ona bitta daromad manbai bilan cheklangan bo'lib, farzandlarning ta'limini ta'minlashda qiyinchiliklarga duch keladi. Bu ayniqsa, maktabdan tashqari qo'shimcha darslar, repetitorlik xizmatlari va boshqa ta'lim xarajatlarini qoplashda o'zini ko'rsatadi. Moddiy cheklovlar farzandlarning ta'limga bo'lgan imkoniyatlarini kamaytiradi va ta'limda muvaffaqiyatga erishishlarini qiyinlashtiradi. Ajralgan oilalarda o'sgan farzandlar ko'pincha ota-ona o'rtasidagi nizolar, stress va beqarorlikni his qilishadi. Bu ruhiy holat farzandlarning ta'limga bo'lgan qiziqishini kamaytiradi. Ota-ona o'rtasidagi ajralish yoki doimiy ziddiyatlar bolada xavotir, o'zini noqulay his qilish kabi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday holatlarda farzandlar o'z o'qishiga etarlicha e'tibor qaratolmaydi va ta'limdagi muvaffaqiyatlari pasayishi mumkin. Noto'liq oilalarda farzandlar jamiyat tomonidan ko'proq qo'llab-quvvatlanishga muhtoj bo'ladi. Oila ichidagi nizo va ajralishlar farzandni yaqin qarindoshlar yoki jamiyatdan qo'llab-quvvatlashni olishdan mahrum qilishi mumkin. Jamiyatda farzandlarni ta'lim olishda qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar yetishmasligi, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlardan izolyatsiya qilish bolalarning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini pasaytiradi. Ajralgan oilalarda farzandlar ko'pincha ota-ona tomonidan to'liq e'tibor qaratilmasligi sababli ta'lim olishda qiynalishadi. Ota-ona o'rtasidagi nizo yoki ajralishlar, ularning farzandlarining ta'limiga e'tibor berishlari yoki o'zaro kelishib ishlashlarini qiyinlashtiradi. Shu sababli, farzandlar ba'zan o'zlarining ta'lim ehtiyojlarini to'liq qondira olmaydi.

Ajralgan oilalarda farzandlarning ruhiy va psixologik holatini yaxshilash uchun psixologik yordam zarur. Farzandlar psixologik maslahatlar, oila terapiyasi yoki individual terapiya orqali stressni engishlari va o'zlarini xavotirdan xoli his qilishlari mumkin. Shuningdek, maktablarda psixologlar tomonidan o'tkaziladigan yordam dasturlari farzandlarning ta'limga bo'lgan motivatsiyasini oshirishi mumkin. Psixologik yordam orqali farzandlarning o'ziga bo'lgan ishonchi tiklanadi va o'qishga bo'lgan qiziqishi ortadi.

Farzandlarning ta'lim olishidagi iqtisodiy to'siqlarni yengish uchun davlat va xayriya tashkilotlari tomonidan qo'llab-quvvatlash zarur. Bepul repetitorlik xizmatlari, stipendiyalar va ta'limga ajratiladigan subsidiya dasturlari orqali farzandlar o'z ta'limini davom ettirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Shuningdek, davlatning ijtimoiy yordam dasturlari, oilaning moddiy holatini yaxshilashga

yordam beradi va farzandlarning ta'lim olishiga qo'shimcha imkoniyat yaratadi. Ota-onalar farzandlari bilan samarali muloqot qilish va ta'lim jarayonida ularga yordam ko'rsatish uchun maxsus ta'lim dasturlaridan foydalanishlari kerak. Ota-onalar uchun treninglar va ma'lumotlar orqali ularning ta'limga e'tiborini oshirish, farzandlariga qanday yordam ko'rsatishni o'rgatish mumkin. Ajralgan oilalarda farzandning o'qishiga bo'lgan qo'llab-quvvatlashning ortishi uchun ota-ona o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish zarur. Maktablar va jamiyat farzandlarning ta'limiga yordam berish uchun hamkorlik qilishi zarur. Maktabda psixologlar, o'qituvchilar va ijtimoiy ishlovchilar tomonidan tashkil etiladigan qo'shimcha yordam dasturlari, ijtimoiy tadbirlar farzandlarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, jamiyatda o'tkaziladigan ijtimoiy dasturlar orqali farzandlar ta'limni davom ettirishda qo'llab-quvvatlanishi mumkin. Farzandlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni jamiyat bilan integratsiyalashuvga yordam beradi. Noto'liq oilalarda o'sgan farzandlar ko'pincha jamiyatdan izolyatsiya qilinadi. Jamiyatda o'tkaziladigan tadbirlar, ko'ngilli ishlar, ijtimoiy dasturlar orqali farzandlarga o'qishdan tashqari yangi imkoniyatlar yaratish mumkin. Bu farzandlarning ta'limga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi va ular o'zlarini jamiyatda to'liq ishtirok etuvchi shaxs sifatida rivojlantirishga yordam beradi.

Noto'liq oilalarda farzandlarning ta'lim olishidagi qiyinchiliklar va ularni yengish yo'llari masalasi o'zbek va xalqaro ilm-fanida o'rganilgan bo'lsa-da, bu soha hali to'liq o'rganilmagan. Hozirgi kunda ko'plab tadqiqotlar noto'liq oilalarda o'sgan bolalarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishi, ta'lim olishidagi muammolar va ularni hal qilish yo'llari haqida ma'lumot beradi. Ammo aniq metodologik tadqiqotlar va o'zbek sharoitida to'liq qamrovli tadqiqotlar mavjud emas.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda, ayniqsa, 21-asrda, ajralgan oilalarda o'sgan bolalarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi, ruhiy va psixologik holati haqida bir qator ishlar mavjud. Masalan, AQSh va Yevropa davlatlarida ajralgan oilalarda o'sgan bolalar uchun psixologik yordam, ijtimoiy dasturlar va o'qishdagi muvaffaqiyatni oshirishga qaratilgan tadqiqotlar ko'proq uchraydi.

O'zbekistonda ajralgan oilalar va farzandlarining ta'lim olishidagi qiyinchiliklar haqida ba'zi amaliy tadqiqotlar mavjud. Ular ko'proq ijtimoiy nuqtai nazardan, oilaviy nizolar, farzandlarning ruhiy holati va ta'lim olishda yuzaga keladigan cheklovlar bilan bog'liq masalalarni yoritadi. Biroq, bu tadqiqotlar asosan kichik o'lchamdagi guruhlar bilan olib borilgan bo'lib, kengroq miqyosda olib borilgan va aniq metodologik yondoshuvlarni o'z ichiga olgan tadqiqotlar kam.

Noto'liq oilalarda farzandlarning ta'lim olishdagi muammolarini kengroq yoritish, shuningdek, bu muammolarni bartaraf etish uchun samarali yondoshuvlarni taklif etish uchun yangi metodologik yondoshuvlar ishlab chiqishga harakat qilingan. Shuningdek, empirik tadqiqotlar orqali o'zbek sharoitida bu muammolarning aniq ko'rinishlarini o'rganish va ularga mos yechimlarni taklif qilish maqsad qilingan.

Noto'liq oilalarda oilaviy munosabatlarni yaxshilash, hissiy qo'llab-quvvatlashni oshirish uchun psixologik maslahatlar va qo'llab-quvvatlash

xizmatlarini tashkil etish zarur. Pedagogik-psixologik yondashuvlarni joriy etish: O‘smirlarning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun maktablarda maxsus dasturlar va treninglar o‘tkazish, o‘qituvchilarni tegishli metodikalar bo‘yicha o‘qitish muhimdir. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish: Jamoat tashkilotlari, davlat idoralari va ta’lim muassasalarining hamkorligi orqali noto‘liq oilalarda tarbiyalanayotgan farzandlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini rivojlantirish lozim. Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida noto‘liq oilalarda tarbiyalanayotgan farzandlarning ta’lim olishdagi qiyinchiliklari kamayadi, ularning ijtimoiy-psixologik holati yaxshilanadi va umumta’lim muassasalarida muvaffaqiyatlari ortadi. Bu esa jamiyatda sog‘lom va ma’naviy yetuk avlodning shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda no‘toliq oilalarda farzandlarning ta’lim olishdagi qiyinchiliklari ko‘plab omillarga bog‘liq. Iqtisodiy, psixologik, ijtimoiy va ota-ona e’tiborining yetishmasligi kabi muammolar farzandlarning ta’lim olish jarayonida to‘siqlar yaratadi. Biroq, psixologik yordam, iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash, ota-onalar uchun ta’lim dasturlari, maktab va jamiyat o‘rtasida hamkorlik va ijtimoiy faollikni oshirish orqali bu muammolarni yengish mumkin. Shu tariqa, farzandlarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va ularni yanada muvaffaqiyatli qilish uchun kompleks yondashuv zarurdir.

Noto‘liq oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarning psixologik holatini yaxshilash uchun maxsus psixologik yordam xizmatlari tashkil etilishi zarur. Bu xizmatlar bolalarning hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga yordam beradi. Ota-onalarga oilaviy munosabatlar va farzand tarbiyasi bo‘yicha treninglar va seminarlar o‘tkazish, ularning pedagogik va psixologik bilimlarini oshirish muhimdir. Maktab va maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning ijtimoiylashuvini ta’minlash uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish lozim. Bu dasturlar bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan ehtiyojmand oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarga moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatish tizimini yaratish va rivojlantirish zarur. Noto‘liq oilalarda tarbiyalanayotgan o‘smirlarga pedagogik-psixologik yondashuvlarni qo‘llash, ularning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy moslashuvini ta’minlash muhimdir. Oilaviy tarbiya va ta’lim jarayonida oila, maktab va maktabgacha ta’lim muassasalari o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, bolalarning ijtimoiylashuvi va ta’lim olishida yaxshilanishlarga erishishga yordam beradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi to‘g‘risida nizom. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15 apreldagi 228-son qaroriga 1-ilova.
2. Akramova F.A., Abdullaeva R.M. Sharq mutafakkirlarining oila xususida qarashlari. – T., 2002. – 25 b.;

3. V.M.Karimova Oila: Ijtimoiy himoya omillari. Ilmiy ommabop maqolalar to'plamlari//prof. V.M.Karimova tahriri ostida. T.: 2007. – 118-b.
4. Aziz SA'DULLAYEV. (2024). Aspects of forming voluntary qualities in overcoming anxiety in adolescent wrestlers. News of UzMU Journal, 1(1.4), 176-p Retrieved from <https://journalsnuu.uz/index.php/1/article/view/2035>
5. Shoumarov G., Rasulova Z. Oila ensiklopediyasi. - T.: «Ilm-Ziyo Zakovat», 2016. -270-b.
6. Baratova O.D. Noto'liq oilaning ijtimoiy-psixologik muommolari. Buxoro, «Psixologiya» ilmiy jurnali. 34-b
7. Fayzieva M.X. Oila psixologiyasi. Qarshi Nasaf nashriyoti, 2018.138-bet.
8. Турובה, М.А. (2023). Социально-Психологическое Исследование Деспотизма В Гендерных Отношениях. International Journal of Formal Education, 2(4), 93-с.